



**IPOTEKA KREDITLARINI KOMPLEKS SUG‘URTA QILISH
SHARTNOMASI (OFERTA)
SONLI (tizim avtomat berishi kerak)**

20__ yil “__” _____

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan Litsenziya asosida faoliyatni amalga oshiradigan, keyingi o‘rinlarda “Sug‘urtalovchi” deb ataladigan “O‘zagrosug‘urta” Aksiyadorlik Jamiyati nomidan 20__ yil “__” _____dagi _____-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi Boshqaruv raisi o‘rinbosari B.Axadov bir tarafdin va keyingi o‘rinlarda “Sug‘urta qildiruvchi” deb ataladigan F.I.Sh (arizadan tortiladi) ikkinchi tarafdin quyidagi shartlar asosida mazkur sug‘urta shartnomasini tuzdilar:

1. MAZKUR SHARTNOMADA ISHLATILADIGAN ATAMALAR MAZMUNI:

Atama	Ta‘rif
Ipoteka shartnomasi	Ipoteka kreditini olish uchun Sug‘urta qildiruvchi bilan Naf oluvchi o‘rtalarida ma‘lum muddatga tuzilgan shartnoma
Uy-joy	Ipoteka krediti bo‘yicha garovga qo‘yilayotgan mulk.
Naf oluvchi	Ipoteka krediti shartnomasiga muvofiq Sug‘urtalanuvchiga ipoteka kreditini taqdim etuvchi bank. Mijoz arizasiga muvofiq mazkur shartnoma bo‘yicha naf oluvchi – (Bank nomi arizadan tortiladi)
Regress huquqi	Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga to‘lagan Sug‘urta to‘voni miqdorini zarar yetkazgan shaxsdan undirish uchun talab qilish (regress) huquqiga ega. Regress huquqi O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.
Sug‘urta qildiruvchi (qarz oluvchi)	Ipoteka krediti sug‘urtasi bo‘yicha Sug‘urtalovchi bilan aniq huquqiy va moliyaviy munosabatga ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar, hususiy tadbirkorlar, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari.
Sug‘urta qiymati	Sug‘urta shartnomasini tuzish vaqtidagi Uy-joyning haqiqiy qiymati.
Sug‘urta muddati	Sug‘urtalanuvchi sug‘urta mukofotini o‘z vaqtida to‘lashi sharti bilan Jamiyatning ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlari amalda bo‘ladigan davr. Jamiyat Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta muddati mobaynida sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalari uchun majburiyatlarga ega bo‘ladi. Sug‘urta polisida va Ipoteka shartnomasida belgilangan muddat.
Sug‘urta mukofoti	Sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatda, Sug‘urta qildiruvchi tarafdin Sug‘urtalovchiga sug‘urta qilingan Uy-joy uchun to‘lanadigan pul miqdori.
Sug‘urta polisi	Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga beriladigan, Sug‘urtalovchining majburiyatlarini ma‘lum muddatgacha kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.
Sug‘urta summasi	Sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urtalovchining eng yuqori javobgarlik olib boruvchi pul miqdori.
Sug‘urta ta‘minoti (sug‘urta puli)	Sug‘urta shartnomasiga asosan, baxtsiz hodisalar oqibatida sug‘urta qilingan shaxsning sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar ta‘minoti uchun Sug‘urta qildiruvchiga yoki sug‘urta qilingan shaxsga to‘lanadigan pul mablag‘i.
Sug‘urta to‘voni	Sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda, Sug‘urta hodisalari oqibatida ko‘rilgan zararni qoplash uchun Sug‘urtalovchi tarafdin Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lanadigan mablag‘.



Sug‘urta hodisasi	Sug‘urtalovchining javobgarligi boshlanib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga Sug‘urta tovonini to‘lash uchun haqiqiy sodir bo‘lgan hodisa.
Sug‘urta shartnomasi	Taraflarning yuridik va moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi ofertaga asosan elektron ravishda tuzilgan mazkur Sug‘urta shartnomasi (Shartnoma).
Tabiiy ofatlar	Shartnomada ko‘rsatilgan tabiiy ofatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 501-sonli qaroriga asosan sharhlanadi.
Sug‘urtalovchi	O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan Litsenziyasi asosida faoliyat olib borayotgan “O‘zagrosug‘urta” AJ.
Shartsiz franshiza	Zararning ma‘lum miqdori bo‘lib, uning chegarasida Sug‘urtalovchining javobgarligi yuzaga kelmaydi va zararlarni qoplashga doir talablarni ko‘rib chiqmaydi. Zarar miqdori shartsiz franshiza chegarasidan ortiq bo‘lgan taqdirda, shartsiz franshiza summasi zarar summasidan chegirib qolinadi.

2. SHARTNOMA MAZMUNI

2.1. Sug‘urtalovchi Sug‘urta shartnomasi shartlari asosida quyidagi majburiyatlarni oladi:

1-Bo‘lim: Sug‘urta shartnomasining 4.1-bandida ko‘rsatilgandan tashqari, Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi o‘rtalarida tuzilgan 20__y. “__” ____/____-sonli (Arizadan tortiladi) ipoteka shartnomasi asosida garovga qo‘yilayotgan Uy-joyga yetkazilgan zararining to‘liq yoki qisman yo‘qotilishi yoki zararlanishi bo‘yicha Sug‘urta tovonini to‘lash;

2-Bo‘lim: Sug‘urta shartnomasining 4.1-bandida ko‘rsatilgandan tashqari, Sug‘urta qildiruvchining sug‘urta shartnomasi amal qilgan davrda baxtsiz hodisa natijasida mehnat qobiliyatini yo‘qotib I guruh nogironi bo‘lishi yoki uning vafoti tufayli sug‘urta pulini to‘lash.

2.2. Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatda Sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatini oladi.

2.3. Sug‘urta shartnomasi muddati Ipoteka shartnomasi muddatiga mos ravishda o‘rnatiladi.

3. SUG‘URTA HODISASI

3.1. Sug‘urtalovchi Sug‘urta shartnomasiga asosan quyida ko‘rsatilgan sug‘urta tavakkalchiliklari bo‘yicha majburiyat olib boradi:

1-Bo‘lim: Garovga qo‘yilayotgan Uy-joy sug‘urtasidan:

Uy-joyning doimiy saqlanish joyida kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko‘chki, do‘l, juda kuchli qor yog‘ishi yoki kuchli sovuq, yong‘in, portlash, o‘g‘irlik, bosqinchilik, isitish tizimidagi nosozliklar va ichki santexnika tizimidagi uzilishlar, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakati natijasida yetkazilgan zarar.

2-Bo‘lim: Sug‘urta qildiruvchini baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish:

Sug‘urta shartnomasi muddati davomida Sug‘urta qildiruvchini baxtsiz hodisa natijasida mehnat qobiliyatini to‘liq doimiy yo‘qotib I guruh nogironi bo‘lishi;

Sug‘urta shartnomasi muddati davomida Sug‘urta qildiruvchini baxtsiz hodisa natijasida vafot etishi.

4. UMUMIY ISTISNOLAR

4.1. Sug‘urtalovchi quyidagi hollarda Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug‘urta tovonini to‘lashni rad etadi:

1-Bo‘lim:

1) Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining qastdan qilgan harakatlari;

b) Sug‘urta qildiruvchining va (yoki) oila a‘zolarining spirtlik ichimliklar, giyohvand moddalar ta’siridagi harakatlari;

d) Uy-joyning tabiiy holda kuyishi, chirishi yoki yemirilishi, kuya, zararkunandalar, termitlar yoki boshqa hashorotlar, mol-mulkga xos kamchiliklar, yashirin nuqsonlar, o‘zidan-o‘zi yomonlashuvi, zaharlanish, zanglash, quruq yoki xo‘l tutash, ob-havo namligi, smog yoki ekstermal



harorat ta’sirida yetkazilgan ziyon, buzilish yoki zarar; yohud yer osti suvlar ta’sirida yerning cho‘kishi natijasida Uy-joyning zararlanishi, buzilishi yoki nobud bo‘lishi;

e) uchinchi shaxslar tomonidan yo‘q qilingan yoki zararlantirilgan Uy-joylar vakolatli organlarga murojaat qilinmagan bo‘lsa hamda ushbu hodisa vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa;

f) Sug‘urta shartnomasi muddati tugagan bo‘lsa, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 948 va 950 moddalarini bo‘yicha;

g) Sug‘urta shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida haqiqiy emas deb tan olingan bo‘lsa;

h) Sug‘urta hodisasi yoki Sug‘urta tovonini aniqlashda Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchiga ushu voqeaga nisbatan tergov ishlari olib borilayotgan bo‘lsa;

i) Sug‘urta shartnomasi haqiqiy emas deb tan olingan paytda.

2-Bo‘lim:

1) Tergov yoki sud tashkilotlari tomonidan qastdan sodir etilgan deb topilgan Sug‘urta qildiruvchining jarohatlanishi yoki vafot etishi;

b) Sug‘urta qildiruvchini epidemiya natijasida vafot etishi;

d) Sug‘urta qildiruvchining barcha xavfli sport turlari bilan shug‘ullanishi (avto va motosport, parashyutdan sakrash, deltaplan, tog‘ chang‘isi, alpinizm, tog‘ va suv turizmi va boshqalar);

e) Sug‘urta qildiruvchi immunodefitsit virusi (OIV) bilan yoki boshqa barcha viruslar orqali kasallansa;

f) Sug‘urta qildiruvchi transport vositasini barcha turdagi alkogolli ichimliklarni iste’mol qilgan holatda boshqarishida u bilan hodisa yuz bersa;

g) Miya qon tomirlarini bekilishi natijasida hamda alkogol ichimliklari yoki giyohvand moddalarini tasirida xushidan ketisa;

h) mehnatni himoya qilish qoidalari va sanitariya me’yorlari, texnika xavfsizligi qo‘pol ravishda buzilishi oqibatlarini;

i) Sug‘urta qildiruvchining qo‘pol ehtiyotsizligi, bilib turib (qastdan) amalga oshirgan hatti-harakati yoki harakatsizligi natijasida zarar yetkazilsa.

4.2. Sug‘urta shartnomasiga asosan quyidagi siyosiy tavsifga ega bo‘lgan hodisalar oqibatida, Uy-joyga yetkazilgan zarar qoplanmaydi:

urush va xarbiy harakatlar (urush e’lon qilinganligi yoki qilinmagaligidan qat’iy nazar), g‘alayon, inqilob, qo‘zg‘alon, isyon, fitna, ish tashlash, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik xarakatlari, musodara qilish, rekvizitsiya, xukumat yoki uning tarkibiy qismi topshirig‘iga asosan buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi xarakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo‘lishi holatlarida.

4.3. Sug‘urta shartnomasida boshqa holatlar ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Uy-joy davlat vakolati tomonidan yo‘q qilinsa yoki qo‘lga olinsa, musodara qilinsa, Sug‘urtalovchi Sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rilgan zararni qoplamaydi.

5. SUG‘URTA PULINI, SUG‘URTA MUKOFOTINI ANIQLASH VA TO‘LASH TARTIBI

5.1. Uy-joyning Sug‘urta qiymati (haqiqiy qiymati): raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi) 10 qator.

5.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha jami sug‘urta summasi: raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi) 12 qator.

Shundan:

1-Bo‘lim. Garovga qo‘yilayotgan Uy-joy (ipoteka) sug‘urta summasi: raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi) 11.1 qator

2-Bo‘lim. Sug‘urta qildiruvchini baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash puli: raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi) 11.2 qator.

2-Bo‘limdagi sug‘urta puli, Naf oluvchi tomonidan berilgan, mol mulk olish uchun olingan kredit summasi miqdorida belgilanadi.

5.3. Garovga qo‘yilayotgan Uy-joy haqiqiy qiymatidan past qiymatga baholangan sug‘urtalangan bo‘lsa, u holda Sug‘urtalovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 936-



moddasi “To‘liq bo‘lmagan mulkiy sug‘urta” asosida Sug‘urta pulining Sug‘urta qiymatiga bo‘lgan nisbatiga mutanosib ravishda Sug‘urta tovonini to‘laydi.

Ushbu shartnoma bo‘yicha yillik sug‘urta tarifi sug‘urta summasiga nisbatan 0.08 foizni tashkil etib, sug‘urta muddati uchun sug‘urta mukofoti miqdori: **raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi) 15 qator** tashkil etadi.

5.4. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha barcha hisob-kitoblar so‘mda olib boriladi. Sug‘urta mukofoti taraflar ushbu Shartnomani imzolaganlaridan keyin 5 (besh) bank kuni ichida bir yo‘la to‘lanadi.

5.5. Ushbu sug‘urta shartnomasida kelishilgan muddatlarda sug‘urta mukofoti Sug‘urta qildiruvchi tomonidan to‘lanmagan taqdirda Shartnoma bo‘yicha Sug‘urtalovchining javobgarligi kuchga kirmaydi. Sug‘urtalovchi tomonidan hodisa bo‘yicha bildirilgan da‘vo va talablar ko‘rib chiqilmaydi.

5.6. Sug‘urta polisi, Sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgandan so‘ng ko‘pi bilan 3 kun ichida beriladi.

6. SUG‘URTA SHARTNOMASINING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Sug‘urta shartnomasi imzolangan (oferta qabul qilingan) vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgandan so‘ng Sug‘urtalovchining majburiyatlari kuchga kiradi.

6.3. Sug‘urta muddati Sug‘urta polisida belgilanadi.

7. SUG‘URTA SHARTNOMASINI AMAL QILISHDAN TO‘XTATILISHI

7.1. Sug‘urta shartnomasi taraflarning arizalariga asosan har qanday holatda to‘xtatilishi mumkin. Bunda ariza beruvchi Naf oluvchining yozma roziligini olgan holda, taraflarni Sug‘urta shartnomasi bekor bo‘lishidan 30 (o‘ttiz) kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

7.2. Sug‘urta shartnomasi quyidagi hollarda o‘z kuchini yo‘qotadi:

- a) amal qilish muddati tugaganda;
- b) Sug‘urtalovchi Sug‘urta shartnomasidagi majburiyatlarini to‘liq bajarganida;
- d) Sug‘urta qildiruvchining majburiyatlarini agar uchinchi shaxs qabul qilmagan bo‘lsa Sug‘urta qildiruvchi (jismoniy shaxs) vafot etganda;
- e) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta mukofotini Sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to‘lamaganda;
- f) Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta tovonini to‘liq to‘langanda;
- g) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Sug‘urta shartnomasini bir tarafning talabiga asosan bekor qilinganda boshqa taraflarni yozma ravishda xabardor qiladi.

7.3. Sug‘urta shartnomasi agar u kuchga kirgandan keyin Sug‘urta hodisasi yuz berish ehtimoli yo‘qolgan va sug‘urta xavfining mavjud bo‘lishi Sug‘urta hodisasidan boshqa holatlar bo‘yicha tugagan bo‘lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo‘ladi. Sug‘urtalangan Uy-joyning yuz bergan Sug‘urta hodisasidan boshqa sabablarga ko‘ra nobud bo‘lishi shunday holatlar jumlasiga kiradi.

7.4. Agar sug‘urta shartnomasidagi sug‘urta summasini oshirib yuborish sug‘urta qildiruvchi tomonidan aldashing oqibati bo‘lsa, sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va o‘ziga yetkazilgan zarar uning sug‘urta qildiruvchidan olgan sug‘urta puli summasidan ortiq miqdorda qoplanishini talab qilishga haqli.

8. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Sug‘urta qildiruvchining huquqlari:

8.1.1. Sug‘urta shartnomasi muddati davomida Sug‘urtalovchidan ipoteka krediti sug‘urtasi bo‘yicha maslahatlar olish.

8.1.2. Sug‘urta hodisasi yuz berganda Sug‘urtalovchidan Sug‘urta pulini/qoplamasini olish.

8.1.3. Sug‘urta hodisasi bo‘yicha holis ekspertiza o‘tkazishni talab qilish.

8.1.4. Alohida obyektlar va mulk bo‘yicha qo‘shimcha sug‘urtalash.



8.1.5. Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda Sug‘urta shartnomasiga qo‘shimcha va (yoki) o‘zgartirish kiritish.

8.1.6. Sug‘urtalovchini va Naf oluvchini ogohlantirgan holda Sug‘urta shartnomasini qonunchilikning belgilangan tartibida muddatidan oldin bekor qilish.

8.2. Sug‘urta qildiruvchining majburiyatlari:

8.2.1. Sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatda Sug‘urta mukofotini to‘lash.

8.2.2. Sug‘urtalovchiga sug‘urta obyektini haqida to‘liq va haqqoniy ma‘lumot berish.

8.2.3. Sug‘urta obyektini monitoring qilish uchun sharoit yaratish.

8.2.4. Sug‘urta hodisasi sodir etilganda:

1) Sug‘urtalovchini yoki uning vakilini zudlik bilan, 72 soatdan kechikmasdan xabardor qilish. Xabardor qilingandan so‘ng hodisa bo‘lgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida Sug‘urtalovchiga Sug‘urta hodisasi tafsilotlari haqida yozma ravishda har qanday vosita orqali xabarnomani berish.

b) vakolatli organlarga hodisa haqida ariza berish.

8.2.5. Sug‘urtalovchiga hodisaning tafsifi haqida ma‘lumotnoma berish iloji bo‘lmaganda ish sudga berilgani haqida yoki jinoyat ishining ochilganligi va to‘xtatilganligi haqidagi tergov organining qarori nusxasini berish.

8.2.6. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda zararlangan Uy-joyini ko‘rish va zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sug‘urtalovchini ta‘minlash.

8.3. Sug‘urtalovchining huquqlari:

8.3.1. Sug‘urta shartnomasini tuzishda, amal qilish davrida va Sug‘urta hodisasi sodir etilganda sug‘urtalangan Uy-joyning holatini saqlanish sharoitini berilgan ma‘lumotlar to‘g‘ri ekanligini tekshirish.

8.3.2. Sug‘urta hodisasi sodir etilganda qaltislik darajalariga tegishli bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish.

8.3.3. Vakolatli organning hodisa haqida jinoyat ishi qo‘zg‘atilganligi bo‘yicha qarorini olmaguncha yoki hodisa haqida to‘liq ma‘lumot va hujjatlar to‘plamini olmaguncha Sug‘urta tovonini to‘lashni to‘xtatib turish.

8.3.4. Sug‘urta tavakkalchiliklarini oshirishga sabab bo‘luvchi holatlar aniqlanganda Sug‘urta shartnomasi shartlarini o‘zgartirish.

8.4. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:

8.4.1. Sug‘urta qildiruvchiga ko‘pi bilan 3 (uch) kun ichida Sug‘urta polisini berish.

8.4.2. Sug‘urta hodisasi tan olingandan keyin 10 (o‘n) kun ichida Sug‘urta tovonini to‘lash.

8.4.3. Sug‘urta tovonini to‘lashni rad etganda Sug‘urta qildiruvchiga yozma ravishda xabarnoma berish.

8.5. Naf oluvchining huquqlari:

8.5.1. Sug‘urta shartnomasi muddati davomida Sug‘urtalovchidan ipoteka krediti sug‘urtasi bo‘yicha maslahatlar olish.

8.5.2. Sug‘urta hodisasi yuz berganda Sug‘urtalovchidan Sug‘urta puli/qoplamasini olish.

8.5.3. Sug‘urta hodisasi bo‘yicha holis ekspertiza o‘tkazishni talab qilish.

8.5.4. Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchi bilan kelishilgan holda Sug‘urta shartnomasiga qo‘shimcha va (yoki) o‘zgartirish kiritish.

8.5.5. Sug‘urtalovchini va Sug‘urta qildiruvchini ogohlantirgan holda Sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish.

8.6. Naf oluvchining majburiyatlari:

8.6.1. Kredit shartnomasida belgilangan muddatda kredit mablag‘larini ajratish.

8.6.2. Sug‘urtalovchiga sug‘urta obyektini haqida to‘liq va haqqoniy ma‘lumot berish.

8.6.3. Sug‘urtalovchi bilan sug‘urta obyektini monitoring qilishda qatnashish.

8.6.4. Sug‘urta hodisasi sodir etilganda:

1) Sug‘urtalovchini yoki uning vakilini zudlik bilan, 72 soatdan kechikmasdan xabardor qilish.

b) vakolatli organlarga hodisa haqida ariza berish.



8.6.5. Sug‘urtalovchiga hodisaning tavsifi haqida ma’lumotnoma berish iloji bo‘lmaganda ish sudga berilgani haqida yoki jinoyat ishining ochilganligi va to‘xtatilganligi haqidagi tergov organining qarori nusxasini berish.

8.6.6. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda zararlangan Uy-joyni ko‘rish va zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sug‘urtalovchini ta‘minlash.

9. SUG‘URTA TOVONINI TO‘LASH TARTIBI VA SHARTLARI

9.1. Sug‘urta qildiruvchining Sug‘urta tovonini to‘lash haqidagi arizasi quyidagi xujjatlar bilan birga 3 (uch) kun ichida taqdim qilinadi:

Uy-joy bo‘yicha:

- a) Sug‘urta hodisasi to‘g‘risida xabarnoma;
- b) Sug‘urta qildiruvchining Uy-joyning zararlangan qismiga bo‘lgan da‘vosi ro‘yxat bo‘yicha nomi va zarar miqdori;
- d) Uchinchi shaxslardan zarar uchun undirilgan mablag‘;
- e) Sug‘urta hodisasini tasdiqlovchi muxrlangan va vakolatli shaxslar (sud, yong‘in xavfsizligi, IIB va b.sh.) tomonidan ro‘yxatlangan hujjatlar to‘plami;

Baxtsiz hodisa bo‘yicha:

- a) Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘i turg‘un yomonlashganda (I guruh nogironligi):
 - Sug‘urta polisining nusxasi;
 - nogironlik ko‘rsatilgan TMEK ma’lumotnomasining nusxasi;
 - Sug‘urtalangan shaxs/Naf oluvchi yoki sug‘urta ta‘minoti olishga vakolatli boshqa shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat;
 - sug‘urta ta‘minoti to‘lovini amalga oshirish uchun zarur bank rekvizitlari ko‘rsatilgan ma’lumot;
- b) Sug‘urtalangan shaxs halok bo‘lganda:
 - Sug‘urta polisining asli;
 - sodir bo‘lgan voqeani tasdiqlovchi, voqea tavsilotlari va joyi haqida ma’lumotga ega hujjat;
 - O‘lim haqida guvohnomaning nusxasi (ko‘rish uchun aslini taqim etgan holda);
 - Sug‘urta ta‘minotini olish vakolatiga ega Naf oluvchining shaxsni tasdiqlovchi hujjat;
 - sug‘urta ta‘minoti to‘lovini amalga oshirish uchun zarur bank rekvizitlari ko‘rsatilgan ma’lumot.

9.2. Sug‘urta puliga nisbatan quyidagi tartibda to‘lanadi:

- a) 1-guruh nogironligi uchun – 80,0 %;
- b) Sug‘urta qildiruvchi baxtsiz hodisa natijasida vafot etganda oldingi Sug‘urta ta‘minoti to‘langan qismlari olib tashlangan holda 100 % to‘lanadi.

9.3. Sug‘urta hodisasi haqida ariza berilgandan so‘ng, hodisa asoslarini aniqlash uchun 3 (uch) kun ichida komissiya tashkil qilinadi. Komissiya tarkibiga Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchining vakillari, hodisa tavsifiga ko‘ra mutasaddi tashkilot vakillari, ekspertlar va boshqalar kiradi.

9.4. Sug‘urta hodisasi natijasida aniqlanadigan mulkga yetkazilgan sug‘urta tovonni miqdori Linseziyaga ega bo‘lgan baholovchi tashkilot yoki ekspertlarning baholash hisoboti asosida belgilanadi.

9.5. Komissiya tomonidan Sug‘urta hodisasi deb tan olinsa 3 (uch) kun ichida zarar miqdori va asoslari haqida dalolatnoma tuziladi.

9.6. Taraflar o‘rtalarida zarar miqdori yoki asoslari haqida norozichilik kelib chiqsa boshqa mustaqil ekspert jalb qilinadi.

9.7. Sug‘urta summasidan past qilib to‘langan Sug‘urta tovonidan qolgan Sug‘urta summasi qismi Sug‘urta shartnomasining oxirgi muddatigacha o‘z kuchini saqlab qoladi.

9.8. Yetgan zarar to‘liq qoplangan bo‘lsa yoki uni qoplash sud qarori bilan aybdor shaxsga yuklatilgan bo‘lsa Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta tovonini olish huquqini yo‘qotadi.

9.9. Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi uchinchi shaxsdan yoki aybdor shaxsdan zarar uchun Sug‘urta tovonini bir qismini olgan bo‘lsa Sug‘urtalovchi faqatgina Sug‘urta summasining qolgan qismini to‘lashi mumkin.



9.10. Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga to‘lagan Sug‘urta tovonni miqdorini zarar yetkazgan shaxsdan undirish uchun talab qilish (regress) huquqiga ega. Regress huquqi O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

9.11. Uy-joy yo‘qotilsa uning zararlangan qismi almashtiriladi yoki Sug‘urta summasi doirasida to‘lanadi. Bu holda har bir bo‘lim bo‘yicha umumiy Sug‘urta tovonni Sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan umumiy Sug‘urta summasidan yoki Sug‘urta ta‘minotidan oshmasligi kerak.

9.12. Sug‘urtalovchining Sug‘urta tovonini (ta‘minoti)ni to‘lashni rad etishdagi qarori asosli ravishda Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni so‘rab murojaat etganlaridan keyin 15 (o‘n besh) kun ichida rad etish sabablari ko‘rsatilgan holda yozma ravishda xabar qilinadi.

9.13. Sug‘urtalovchining Sug‘urta tovonini (ta‘minoti)ni to‘lashni rad etishdagi qarori sudga da‘vo berish orqali hal qilinishi mumkin.

9.14. Sug‘urta qildiruvchining yoki Naf oluvchining Sug‘urta hodisasi natijasida to‘langan zarar uchun aybdor shaxsdan talab qilish huquqi to‘langan summa doirasida Sug‘urtalovchiga o‘tadi.

9.15. Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug‘urta qildiruvchi, Naf oluvchi va zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

9.16. Sug‘urtalovchi o‘ziga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi barcha hujjatlar to‘plamini, guvohlarni va ma‘lumotlarni berishi shart.

9.17. Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa, u holda Sug‘urtalovchi Sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod bo‘ladi va to‘langan Sug‘urta tovonini qaytarishga haqli bo‘ladi.

9.18. Sug‘urta hodisasi tan olinganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolanganidan so‘ng Sug‘urta tovonni Sug‘urtalovchi tomonidan 10 (o‘n) bank kuni ichida Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lanadi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Sug‘urta shartnomasini bekor qilish Sug‘urtalovchi, Naf oluvchi yoki Sug‘urta qildiruvchi tomonidan kredit olinmaganligi sababli muddatidan oldin bekor qilinsa, Sug‘urta qildiruvchiga ishlab topilmagan Sug‘urta mukofoti Sug‘urta polisi muddati tugatilgan kundan boshlab javobgarlik olib borilmagan kunlar uchun qaytarib beriladi.

10.2. Sug‘urta qildiruvchi Naf oluvchi oldidagi Ipoteka shartnomasi bo‘yicha javobgarligini muddatidan oldin bekor qilsa, u holda Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchiga Naf oluvchining yozma ravishdagi xatini taqdim qiladi. Bu holda Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta shartnomasini oxirgi muddatigacha qoldirishga haqli bo‘ladi yoki Sug‘urta mukofoti qaytarilgan taqdirda Sug‘urtalovchi ishlatilgan Sug‘urta mukofotini chegirib qolishga haqli bo‘ladi.

Sug‘urta mukofotining ishlatilmay qolgan qismi qaytarilishida Sug‘urtalovchi o‘zining harajatlarini chegirib qoladi. Sug‘urtalovchining chegirib qolinadigan harajatlari miqdori sug‘urta mukofotining 25 foizi darajasida belgilanadi.

10.3. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatlar taraflarning yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga berilmaydi.

10.4. Taraflar Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha fors-major holatida to‘liq yoki qisman javobgarlik olib bormaydilar.

10.5. Fors-major holati - urush va xarbiy harakatlar (urush e‘lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat‘iy nazar), g‘alayon, inqilob, qo‘zg‘olon, isyon, fitna, ish tashlash, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, hukumat yoki uning tarkibiy qismi buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi harakatlari, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo‘lishi va Sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilmagan tabiiy ofatlar hisoblanadi.

10.6. Fors-major xolati tugaganidan so‘ng taraflar yozma ravishda ogohlantiriladilar.

10.7. Sug‘urta shartnomasida yozilmaganlarni taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida hal qiladilar.

10.8. Sug‘urtalangan Uy-joyga tegishli boshqa Sug‘urta shartnomasi yoki Sug‘urta polisi mavjud bo‘lsa va Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, yetgan zarar miqdori uchinchi shaxslar tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lab berilsa, u holda Sug‘urtalovchi Sug‘urta tovonini o‘z javobgarligi doirasidan ortiq bo‘lgan miqdorini to‘lab berishga majbur emas.



11. SUBROGATSIYA

11.1. Sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning Sug‘urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to‘langan summa doirasida Sug‘urtalovchiga o‘tadi. Biroq shartnomaning bila turib zarar yetkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi sug‘urtalovchiga o‘tishini istisno qiladigan shartlari o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi. Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug‘urta qildiruvchi va zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

11.2. Sug‘urta qildiruvchi, Sug‘urtalovchiga o‘ziga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug‘urtalovchiga berishi, hamda barcha ma’lumotlarni unga ma’lum qilishi shart.

11.3. Sug‘urta qildiruvchi, Sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o‘zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug‘urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi Sug‘urta tovonini to‘liq yoki uning tegishli qismini to‘lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to‘langan Sug‘urta tovonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

12. NIZOLARNI HAL ETISH

12.1. Mazkur Sug‘urta shartnomasining shartlarini bajarmaslik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun taraflar O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan javobgarlikni teng darajada olib boradilar.

12.2. Mazkur Sug‘urta shartnomalaridan kelib chiqadigan barcha bahs va munozaralar taraflarning o‘zaro kelishuviga asosan hal qilinadi. Kelishish imkoni bo‘lmagan holda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligi asosida xo‘jalik sudiga ko‘rib chiqish uchun beriladi.

13. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

13.1. Mazkur Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha taraflar shartnomaning ilovalarini va unga tegishli hujjatlarni uchinchi shaxsga taraflarning yozma rozilgisiz bermaydi va ushbu Sug‘urta shartnomaga taaluqli bo‘lgan barcha ma’lumotlarni sir saqlaydilar.

13.2. Mazkur Sug‘urta shartnomasi ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning xar biri bir hil huquqiy kuchga ega.

14. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA IMZOLAR

“Sug‘urtalovchi” nomidan	“Sug‘urta qildiruvchi”	“Naf oluvchi”
Nomi: “O‘zagrosug‘urta” AJ Manzili: Toshkent sh, Chilonzor tumani, 19-kv, 61/2- uy Bank: “Mikrokreditbank” ATB MFO: 00433 STIR: 201042345	F.I.Sh: Pasport seriya va raqami: Manzili: JShShIR: Arizadan tortiladi	Nomi: Bank nomi MFO: Arizadan tortiladi